

## **Yozgi mavsumga tayyorgarlik avjida**

Samarqand viloyatida bolalar oromgohlarini yozgi dam olish mavsumiga tayyorlash jarayonida sog‘lomlashtirish maskanlari faoliyatini yanada yaxshilash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oromgochlarga-avvalo, kam ta’minlangan, ko‘p bolali oilalar farzandlarini, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini jalb etish yuzasidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyat hokimi va viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi rayosatining Qo‘shma qaroriga hamda “Sog‘lom ona va bola yili” Davlat dasturi ijrosini ta’minlash maqsadida, joriy yilning yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini namunali tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan “Samarqandtrans markazi” tasarrufidagi “Do‘slik” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohini tayyorlash bo‘yicha mukammal chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, ushbu reja asosida ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, ushbu oromgohda 2016-yilgi dam olish mavsumida jami 300 ta avtotransportchilarning farzandlari hamda Samarqand shahridagi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining 40 nafari homiylik asosida dam olishlari ko‘zda tutilgan. Bu oromgohda ta’tilni yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida, dam olish mobaynida mehnat, media, intellektual va sport o‘yinlari, turli sport musobaqalari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, taniqli adiblar, san’atkorlar va mashhur sportchilar ishtirokida suhbat, uchrashuv va festivallar o‘tkazish ko‘zda tutilgan.